



O'zbekiston Ekologik
partiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga
o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiyasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ilmiy – ommabop jurnal

**“YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH VA EKOLOGIK
BARQAROR RIVOJLANISH BOSQICHLARIDA
ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI
SHAKLLANTIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI”
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

2025-YIL 3-DEKABR

**Republican Scientific–Practical Conference
“CHALLENGES IN DEVELOPING ADVANCED
ENGINEERING SCHOOLS FOR GREEN ECONOMY
AND ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY”**

3 DECEMBER 2025

**Республиканская научно-практическая конференция
«ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ
ИНЖЕНЕРНЫХ ШКОЛ В РАЗВИТИИ ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ»**

3 ДЕКАБРЯ 2025 ГОДА

10-MAXSUS SON



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 217 sahifa.
2025-yil, dekabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

OLIV TA'LIMDA EKO-TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI OROLBO'YI HUDUDINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH.....	8
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich	
“YASHIL ENERGETIKA” – O‘ZBEKISTONNING YASHIL VA SOG‘LOM KELAJAGI IQTISODIYOTIMIZNING YANGI DRAYVERI.....	11
Abdushukur Hamzayev	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI.....	14
Xodjayeva Mohira Mirzaxmadovna	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH: IQTISODIY, EKOLOGIK VA IJTIMOY TRANSFORMATSIYA YO‘NALISHLARI.....	17
Xofizov Baxriddin Turdievich, Raximov Oybek Raimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	21
Muxiddin Kalonov	
YASHIL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA SOLIQ MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	25
Xudoyqulov Sadriddin Karimovich	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ASOSIDA “YASHIL O‘SISHNI” TA‘MINLASH: MUOMMO VA YECHIMLAR.....	28
Makhmudov Nosir Makhmudovich	
YASHIL OBLIGATSIYALAR: IQTISODIY FAOLLIK VA HISOB YURITISHNING DOLZARB MASALALARI.....	32
Norboy G‘anievich Karimov	
O‘ZBEKISTONDA “YASHIL IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQAROR RIVOJLANISHDA ILG‘OR MUHANDIS MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA EKOLOGIK TA‘LIM MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”.....	35
Nazarov Xolmurod	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA TEXNOPARKLARNING AHAMIYATINI AKADEMIK TA‘LIM JIHATIDAN TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Sanjarbek Mirzaliyev Maxamatjon o‘g‘li	
KO‘P YILLIK DARAXTLARNI XATLOVDAN O‘TKAZISH, RAQAMLASHTIRISH VA ILMIY BAHOLASH TIZIMI: EKOLOGIK MONITORING VA SHAHARNING YASHIL INFRASTRUKTURASINI BOSHQARISH UCHUN ILG‘OR MODEL.....	44
Pirmuhamedov Ulug‘bek Botirovich	
MUMKIN BO‘LGAN MUQOBIL SUV MANBASI SIFATIDA YOMG‘IR SUVLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	47
Khursanov Kamol Erkinovich	
HUDUDLARNING XUSUSIYATLARI ASOSIDA IJTIMOY HIMOYA XARAJATLARINI DIFFERENSIAL MOLIYALASHTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH.....	50
Hakimov Feruz Xurshid o‘g‘li	
INDUSTRIYAL SANOAT EHTIYOJLARIGA MOS, INNOVATSIYALAR YARATISHGA QODIR MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA “YASHIL” IQTISODIYOT INTEGRATSIYASINING STRATEGIK AHAMIYATI.....	53
Sherzod Qurbonov	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB‘EKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi	
ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISHDA YASHIL BUXGALTERIYANING ROLI.....	59
Tashmanov G‘olib Davronovich	
YASHIL BUXGALTERIYA VA YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK DOLZARBLIGI.....	63
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	



EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING IJTIMOY-IQTISODIY TAHLILI	66
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	69
Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
АРХИТЕКТУРНЫЕ ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ БЕЗОПАСНЫХ И ДОСТУПНЫХ ВЕЛОДОРОЖЕК В УСЛОВИЯХ ПЛОТНОЙ ГОРОДСКОЙ ЗАСТРОЙКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	72
Абдуллаева Ситорабону Хасанжон кизи	
YASHIL MOLYAVIY INNOVATSIYALAR VA ULARNING EKOLOGIK INFRATUZILMA MODERNIZATSIYASIDAGI ROLI	74
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ДО 2030 ГОДА.....	77
Алимова Азиза Шерзатовна	
SANOATDA YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLAR	83
Abdullaev Elyorbek Odiljon o'g'li	
MODA SANOATIDA YASHIL MARKETING VA ISTE'MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI RIVOJLANTIRISH.....	87
Ahmadjonova Rayhona Jasurbek qizi	
YASHIL ERP TIZIMLARINING KORXONALARDA BARQAROR RIVOJLANISH VA MARKETING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	91
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA YASHIL MARKETINGDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI QO'LLASH	95
Boltayeva Sitara Mirdjonovna	
HUDUDLARARO IJTIMOY TENGLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL MARKETING INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI	99
Ibrohimov Baxtrom Bog'dirovich	
OLIY TA'LIMDA YASHIL INNOVATSIYALARNI TARG'IB QILISH ORQALI XORIJIY TALABALAR OQIMINI OSHIRISH	103
Isamuqometov Shukurullo Asotullayovich	
YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA AGROMARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA MEVA SABZAVOT BOZORIDAGI NARX BARQARORLIGI MODELI	107
Isroilov Abdurashid Abduraxmanovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	112
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI BILIMLARNI BAHOLASH TIZIMLARI VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOSLASHGAN ILG'OR YONDASHUVLARI	115
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	119
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY TOLALARDAN FOYDALANISHDA BARQAROR TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH	122
Raximov Furqat Jalolovich	
TIJORAT BANKLARIDA OMONAT HAJMINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING ROLI	126
Raximov Shoxrux Furqatovich	
PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINI JORIY ETISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	130
Tadjiev Sa'dulla Muhitdinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORLARIDA YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA MARKETING STRATEGIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	134
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	



ФИНАНСОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ И МЕЖДУНАРОДНОЕ КРЕДИТОВАНИЕ В КОНТЕКСТЕ ЗЕЛЁНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	138
Арзумян Стелла Юрьевна	
XODIMLAR FAOLIYATINI VAHOLASHDA KPI ASOSIDAGI RAQAMLI PLATFORMANI JORIY ETISHNING IQTISODIY, TASHKILIY VA TEXNOLOGIK SAMARADORLIGI.....	144
Shuhratov Ma'murjon Shuhrat o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KPI KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA BOSHQARUV QARORLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING RAQAMLI MODELI.....	147
Shuhratov Ma'murjon Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTON MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING MUHIM SHARTLARI.....	150
Murodbek Boltaboyev	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	154
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
TOVARLARNI ILGARI SURISHDA EKO MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	157
Sobiroz Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	
HAVO IFLOSLANISHINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI VA YASHIL IQTISODIYOT O'RNI: SAMARADORLIK VA SIYOSIY QARORLAR.....	160
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
CHILONJIDA (ZIZIPHUS JUJUBA) O'SIMLIGINING SHAMOLGA TA'SIRI: MORFO-FIZIOLOGIK MEXANIZMLAR VA AGROEKOLOGIK ASOSLARI	163
Yakubjonova Nodiraxon Avaxxon qizi	
TOSHKENT SHAXRINI YASHIL MAKON (ZONA) QILISH LOYIHASI ISHLAB CHIQUISH	166
Kushboqov Bobur	
YASHIL ENERGETIKA ASOSIDA INTELLEKTUAL TEMIR YO'L TARMOQLARIDA ELEKTR ENERGIYANI BOSHQARISH TIZIMLARI: EKOLOGIK BARQARORLIK VA OPTIMAL INTEGRATSIYA YECHIMLARI.....	169
Olimjon Toirov, Shohruh Azimov	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	175
Jumanazar Xolmuminov	
STATISTICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING CREDIT INTEREST RATES IN COMMERCIAL BANKS.....	175
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
MAMLAKATIMIZDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I VA UNI PROGNOZ QILISH USULLARI	178
Sobirova Nigora Baxtiyor qizi	
OROLBO'YI HUDUDIDA YOSHLAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIMNING ROLI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	182
Isoqulova Munisa Muhammad qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL INNOVATSIYALAR HAMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR	186
Raimov Suhrob Jahongir o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLAR	189
Abduganiyeva Gulzada Tolkinovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	192
Mengnorov Almardon Abdirahmonovich	
AKSIZ SOLIG'IGI STAVKALARINI INDEKSATSIYA QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	196
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING RIVOJLANISHI	199
Mamadiyev Elyor Akmalovich	
АРХИТЕКТУРНО-ПРОСТРАНСТВЕННАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ УЛИЦ.....	202
Хаитов С.И.	
DORIVOR O'SIMLIKLAR XOM ASHYOSINING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI	205
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA TENGSIZLIKNING KUCHAYISHI: SABABLAR VA OQIBATLAR.....	208
Fayziyeva Dilso'z Bahodirovna	



FARG'ONA VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MEHNAT BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	212
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	



FARG'ONA VILOYATI IJTIMOY-IQTISODIY VA MEHNAT BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLIL QILISH VA BAHOLASH

Mirzayeva Odina Imomnazar qizi

Alfraganus universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va mehnat bozori holati iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda hududning yalpi hududiy mahsuloti, aholi soni, bandlik darajasi, ish haqi, mehnat samaradorligi hamda mehnat bozoridagi keskinlik ko'rsatkichlari qiyosiy jihatdan o'rganilgan. 2019–2024-yillar kesimida hududiy mehnat bozorining rivojlanish darajasini baholash uchun integral ko'rsatkich ishlab chiqilgan va respublika hududlari bo'yicha taqqoslash amalga oshirilgan. Tahlil natijalari Farg'ona viloyatida mehnat bozorining rivojlanishi nisbatan ijobiy bo'lsa-da, ishchi kuchi ortiqchaligi va mehnat bozoridagi keskinlik saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari hududiy bandlik siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Farg'ona viloyati, mehnat bozori, bandlik, iqtisodiy-statistik tahlil, integral ko'rsatkich, hududiy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the socio-economic development and labor market conditions of Fergana region based on economic and statistical methods. The study examines key indicators such as gross regional product, population growth, employment level, wages, labor productivity, and labor market tension in a comparative perspective. An integral indicator was developed to assess the level of regional labor market development for the period 2019–2024, and a comparative analysis across the regions of the republic was conducted. The results show that although the labor market development in Fergana region has improved, excess labor supply and labor market tension remain significant challenges. The findings of the study can be used to improve regional employment policies and labor market regulation.

Key words: Fergana region, labor market, employment, economic-statistical analysis, integral indicator, regional development.

Аннотация. В статье проведён экономико-статистический анализ социально-экономического развития и состояния рынка труда Ферганской области. В исследовании рассмотрены показатели валового регионального продукта, численности населения, уровня занятости, заработной платы, производительности труда и напряжённости на рынке труда в сравнительном аспекте. Для оценки уровня развития регионального рынка труда за 2019–2024-годы разработан интегральный показатель и выполнено межрегиональное сравнение. Результаты анализа свидетельствуют о положительной динамике развития рынка труда Ферганской области при сохранении проблем, связанных с избыточным предложением рабочей силы и напряжённостью на рынке труда. Полученные выводы могут быть использованы при формировании и совершенствовании региональной политики занятости.

Ключевые слова: Ферганская область, рынок труда, занятость, экономико-статистический анализ, интегральный показатель, региональное развитие.

KIRISH

Farg'ona viloyati respublikamizda muhim va o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan hududlardan biri hisoblanib, viloyatlar orasida doimiy aholi va mehnat resurslari soni bo'yicha yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Shu sababli, Farg'ona viloyatida aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish, shuningdek hududda kambag'allikni qisqartirishda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

2017–2024-yillarda Farg'ona viloyatining shahar va tumanlarini yanada rivojlantirishga oid bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14dekabrdagi "2020–2024-yillarda Farg'ona viloyatining Marg'ilon va Qo'qon shaharlarini kompleks ijtimoiy-



iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ushbu shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan.

Mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlarga qaramasdan, ortiqcha mehnat resurslariga ega bo'lgan viloyat hududida istiqomat qilayotgan aholining ish bilan bandligi masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

2024-yildagi hududiy ko'rsatkichlar tahliliga ko'ra, Farg'ona viloyati doimiy aholi soni bo'yicha respublika hududiy birliklari orasida birinchi o'rinni egalladi (1-jadval). Xususan, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatdagi doimiy aholi soni 4 144,7 ming kishiga yetib, 2024-yilda aholi sonining o'sishi 2,0 foizni tashkil etdi. Shuningdek, viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sishi 6,8 foizni tashkil qilib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha respublikada 5-o'rinni egalladi.

Biroq viloyatda aholi sonining yuqoriligi sababli, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha respublika miqyosida quyi o'rinlardan biri qayd etildi. Xususan, 2024-yilda aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 4,6 foizga oshib, 22 250,7 ming so'mni tashkil etdi. Farg'ona viloyati 2024-yilda aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha respublika hududlari orasida 12-o'rinni egalladi.

Shuningdek, Farg'ona viloyati 2024-yilda sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublikada 5-o'rinni egalladi. Mazkur davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7,6 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa 4,9 foizga oshdi. Viloyat qurilish ishlari hamda chakana savdo aylanmasi hajmi bo'yicha respublikada 4-o'rinni egalladi. Xususan, 2024-yilda qurilish ishlari hajmining o'sishi 8,5 foizni, chakana savdo aylanmasining o'sishi esa 9,2 foizni tashkil etdi.

1-jadval. Farg'ona viloyatining respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ulushi va reytingi¹

№	Ko'rsatkichlar	2024-yil o'sish sur'ati, %	Respublika miqyosida tutgan o'rni
1	Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	6,8	5
2	Aholi jon boshiga YaHM	4,6	12
3	Sanoat mahsulotlari	7,6	5
5	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	4,9	5
6	Asosiy kapitalga investitsiyalar	4,8	9
7	Qurilish ishlari	8,5	4
8	Chakana savdo aylanmasi	9,2	4
9	Xizmatlar	7,3	9
10	Aholi soni	2,0	1
11	Faol aholi soni	-0,5	1
12	Ish bilan band aholi soni	0,7	1

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozori masalalari O'zbekiston iqtisodiy fanida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plamlarida viloyatlar kesimida aholi soni, bandlik, yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar va xizmatlar sohasi rivoji bo'yicha tizimli statistik ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur rasmiy statistik manbalar hududiy mehnat bozorining holatini baholash, hududlararo farqlarni aniqlash hamda iqtisodiy jarayonlarni qiyosiy tahlil qilishda asosiy empirik baza vazifasini bajaradi.

Mehnat bozori va mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari Q.X. Abdurahmonovning "Mehnat iqtisodiyoti va mehnat bozori" asarida nazariy va amaliy jihatdan atroflicha yoritilgan bo'lib, unda bandlik, ish haqi, mehnat samaradorligi hamda mehnat bozorida muvozanat masalalari keng tahlil qilingan. F.M. Mullajonovning hududiy iqtisodiyotga bag'ishlangan tadqiqotlarida esa mehnat resurslarini boshqarish, hududiy rivojlanish omillari va iqtisodiy nomutanosibliklar masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti hamda Jahon bankining mehnat bozori bo'yicha hisobotlarida global va mintaqaviy tendensiyalar, bandlik siyosati va mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlari yoritilib, hududiy tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Farg'ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va mehnat bozori holatini baholashda rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, bandlik, aholi soni, yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar va xizmatlar sohasi bo'yicha e'lon qilingan ma'lumotlari tashkil etdi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning mehnat bozori bo'yicha ochiq statistik materiallari tahlilga jalb qilindi. Olingan ma'lumotlar tasviriy statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda dinamik qatorlar usullari orqali o'rganildi. Hududlar kesimida mehnat bozorining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida bandlik darajasi, mehnat bozorida keskinlik, real ish haqi va mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari asosida integral baholash usuli qo'llandi. Tadqiqot natijalari hududiy farqlarni aniqlash va mehnat bozorida asosiy tendensiyalarni baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yilda Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasida hamda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, ushbu ko'rsatkichlar respublika hududlari miqyosida o'rtacha darajadan past shakllandi. Xususan, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining yillik o'sishi 4,8 foizni, xizmatlar sohasidagi o'sish esa 7,3 foizni tashkil etib, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha viloyat respublikada 9-o'rinni egalladi.

Mehnat bozori va hududning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tasviriy statistik usullar asosida tahlil qilinib, ushbu ko'rsatkichlar respublika hududlari bo'yicha qiyosiy jihatdan o'rganildi. Mazkur tahlil hududiy mehnat bozorining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

O'z navbatida, hududiy mehnat bozorini statistik ko'rsatkichlarni kompleks qo'llagan holda yagona integral ko'rsatkich orqali ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda hududlarda bandlik darajasi, mehnat bozorida keskinlik darajasi, real ish haqi hamda mehnat samaradorligi asosida hududiy mehnat bozorining rivojlanishini aks ettiruvchi integral ko'rsatkich ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval. 2019-2024 yillarda hududiy mehnat bozorining rivojlanishi²

№	Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Toshkent shahri	48	38	34	56	81	88
2	Buxoro viloyati	43	56	66	64	53	85
3	Jizzax viloyati	27	63	56	77	78	84
4	Xorazm viloyati	31	58	51	61	53	77
5	Farg'ona viloyati	29	63	49	57	58	74
6	Namangan viloyati	27	61	59	75	67	71
7	Surxondaryo viloyati	25	60	45	59	65	69
8	Samarqand viloyati	45	58	42	48	57	68
9	Toshkent viloyati	38	61	38	64	55	68
10	Andijon viloyati	30	60	34	45	53	67
11	Navoiy viloyati	39	60	43	65	53	66
12	Qoraqalpog'iston Respublikasi	44	59	76	66	59	60
13	Qashqadaryo viloyati	44	63	50	66	72	59
14	Sirdaryo viloyati	43	60	50	61	67	59

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2024-yillarda hududiy mehnat bozorlarida keskinlik darajasining pasayishi, aholining iqtisodiy faolligi, ish haqi va mehnat samaradorligining oshishi mehnat bozorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, 2019-yilda hududlarda mehnat bozorining rivojlanish darajasi past bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda respublika va hududiy miqyosda aholining bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida mehnat bozorining rivojlanish jarayoni faollashdi.

Bunda respublika darajasida o'qituvchi va shifokorlar ish haqlarining oshirilishi, yillik ish haqi o'sishining inflyatsiya darajasidan yuqori shakllanishi, shuningdek ishchi kuchiga talab tomonida yangi korxonalar tashkil

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida hisob-kitoblar



etilishi va investitsiyalar hajmining ortishi hududiy mehnat bozorlarining rivojlanishiga hissa qo'shdi. Shu bilan birga, hududiy darajada aholi bandligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, jumladan, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratilishi mehnat bozorining rivojlanishiga turtki bo'ldi.

2019–2024-yillarda Farg'ona viloyatida mehnat bozorining rivojlanish darajasi 2,6 barobarga yaxshilanib, integral ko'rsatkich 74 ballga yetdi. Natijada, Farg'ona viloyati hududlar kesimida mehnat bozorining rivojlanish darajasi bo'yicha 5-o'rinni egalladi. Bunda viloyatda mehnat samaradorligi va ish haqi darajasining oshishi mehnat bozorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, mehnat bozoridagi keskinlik darajasining saqlanib qolishi uning yanada rivojlanishini ma'lum darajada chekladi. Shu bilan birga, Toshkent shahrida mehnat samaradorligi va real ish haqining boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligi hamda bandlik darajasining yaxshilanishi, mehnat bozoridagi keskinlik darajasining pastligi hududiy mehnat bozorining rivojlanishiga olib kelib, integral ko'rsatkich 88 ballni tashkil etdi.

Mehnat bozori nisbatan past darajada rivojlangan hududlarda esa mehnat samaradorligi, ish haqi va bandlik darajasining pastligi aniqlandi. Shu sababli, Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlarida mehnat bozorining rivojlanish darajasi past bo'lib, ushbu hududlar uchun hisoblangan integral ko'rsatkich 59 ballni tashkil etdi.

O'z navbatida, hududiy mehnat bozorini statistik ko'rsatkichlarni kompleks qo'llagan holda yagona integral ko'rsatkich orqali ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda hududlarda bandlik darajasi, mehnat bozoridagi keskinlik darajasi, real ish haqi hamda mehnat samaradorligi asosida hududiy mehnat bozorining rivojlanishini ifodalovchi integral ko'rsatkich ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillarga ko'ra, Farg'ona viloyati mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hududning sanoatlashuv darajasi, xizmat ko'rsatish sohasi ulushi, aholi sonining o'sish sur'ati hamda ta'lim tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Hududlar o'rtasidagi farqlar mehnat resurslari taqsimotidagi nomutanosiblikni kuchaytirayotganini ko'rsatadi, biroq shaharlarda xizmat ko'rsatish va savdo sohalaridagi faollikning ortishi mehnat bozorini jonlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu sababli, Farg'ona viloyati mehnat bozoridagi asosiy tendensiyalar — aholining yuqori tabiiy o'sishi, ishchi kuchining ortiqcha taklifi, malakali kadrlar tanqisligi, norasmiy bandlikning yuqori ulushi hamda mehnat migratsiyasining ta'siri — hududdagi mehnat resurslaridan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning diversifikatsiyalanishi, ta'lim tizimining mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilishi hamda mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish darajasining oshirilishi orqali mazkur muammolarni bosqichma-bosqich hal etish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va bandlik siyosatiga oid hujjatlar. – Toshkent, 2017–2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “2020–2024-yillarda Farg'ona viloyatining Marg'ilon va Qo'qon shaharlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror. – Toshkent, 2019–12–14.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami. – Toshkent, 2019–2024.
4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va mehnat bozori. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. Mullajonov F.M. Hududiy iqtisodiyot va mehnat resurslarini boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. International Labour Organization. Global Employment Trends. – Geneva, 2023.
7. World Bank. World Development Indicators: Employment and Labor Market. – Washington, DC, 2022–2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



ISBN 978-9910-8407-4-6



9 789910 840746